



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**



**“IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIYA,
IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TO`PLAMI



Navoiy-2025



“Iqlim o‘zgarishi sharoitida ekologiya, iqtisodiyot va barqaror rivojlanish muammolari va ularning yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy, 2025. – 630 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda “2025-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 490-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat universitetida 2025-yil 3-4 oktyabrda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan tashkil topgan.

Mazkur to‘plam materiallaridan mutaxassislar, yosh olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plamini tayyorlash uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir:

M.B.Kalonov NDU rektori, i.f.d., professor

Taqrizchilar:

A.S.Ilyasov NIU “Aniq, texnika va tabiiy fanlar” kafedrasida prof.,b.f.d.

B.Ye.Jumabayev Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.n.

Texnik muharrir:

M.E.Ummatova Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.(PhD)

M.M.To‘yboyev Navoiy davlat universiteti Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti mutaxassisi

Tashkiliy qo‘mita raisi:

A.J.Kushakov NDU Biologiya kafedrasida mudiri, professor

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

B.Ye.Jumabayev Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.n.

M.N.Ibodova Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

G.V.Sharapova Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

N.H.Xasanov Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida kata o‘qituvchisi, b.f.f.d.(PhD)

O.O.G‘aybullayeva Navoiy davlat universiteti Biologiya kafedrasida o‘qituvchisi, b.f.f.d.(PhD)

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

Mazkur Respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami Navoiy davlat universiteti Kengashining 2025 yil 2 oktyabrda 2-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

© Navoiy davlat universiteti, 2025

2. United Nations (2015). *Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*.
3. UNESCO (2020). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO.
4. Назаров, III. (2021). *Barqaror rivojlanishda ta'lim tizimining o'rni*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Каримов, А. (2022). *Ilm-fan va innovatsiyalar: kelajak sari yo'l*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
6. Ibodova M.N. Kooperativ ta'lim asosida biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning integrativ yo'naltirilgan bilimlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari. *Inter education global* , 2024, №6.
7. Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta'minoti. *Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy jurnal*, 2024, №7.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI ATROF -MUHITNI IDROK ETISHNI SHAKLLANTIRISH: PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR

Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi
NDU Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyat yordamida atrof muhitni idrok etish jarayonlarini o'rganadi. Unda psixologik va pedagogik nazariyalar, tasviriy faoliyat turlari hamda estetik va axloqiy tarbiya omillari tahlil qilinadi. Tarbiyalanuvchilarning observatsiya, rasm, model, tabiiy materiallar bilan ishlash kabi vositalar orqali atrof-muhitga nisbatan ongini kengaytirish, estetik did va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Аннотация. В статье исследуется процесс формирования восприятия окружающей среды у детей дошкольного возраста посредством изобразительной деятельности. Рассматриваются психологические и педагогические теории, виды художественной деятельности, а также факторы эстетического и нравственно этического воспитания. Статья показывает, как с помощью наблюдения, рисунка, моделирования, работы с природными материалами можно расширить экологическое восприятие, развить эстетический вкус и творческое мышление у детей.

Annotation. This article examines how environmental perception can be developed in preschool children through art activities. It analyzes psychological and pedagogical theories, types of artistic activity, and factors of aesthetic and moral ethical education. The article demonstrates how observation, drawing, modeling, and working with natural materials can enhance environmental awareness, aesthetic taste, and creative thinking among preschoolers.

Kalit soʻzlar: tasviriy faoliyat, tasavvur, estetik tarbiya, atrof-muhitni idrok etish, bolalar, pedagogik metodlar.

Ключевые слова: изобразительная деятельность, воображение, эстетическое воспитание, восприятие среды, дошкольники, педагогические методы.

Keywords: art activity, imagination, aesthetic education, environmental perception, preschool children, pedagogical methods.

Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlimni modernizatsiya qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan islohotlar aynan ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga katta urgʻu bermoqda. Xususan, “Maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalarini shakllantirish ustuvor yoʻnalishlar sifatida belgilangan[4]. Bu esa tasviriy faoliyatning oʻrni va ahamiyatini taʼlimiy jarayonda yanada kuchaytirishni talab qiladi. [1]. Shuningdek, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar asosida ishlab chiqilgan Davlat maktabgacha taʼlim standarti (DMTS)da ham har bir bolaning individual salohiyatini aniqlash va uni ijodiy faoliyat orqali yuzaga chiqarish zarurligi alohida qayd etilgan. Shu bilan birga, taʼlim-tarbiya jarayonida sanʼat elementlaridan foydalanish orqali bolalarda ijobiy emotsional muhit yaratish, oʻziga boʻlgan ishonchni oshirish va jamoada ishlash koʻnikmalarini shakllantirish mumkin. [2].

Ijodkorlik insonning hayotdagi faoliyatini samarali tashkil qilish, muammolarga yangicha yondashish va shaxsiy imkoniyatlarini toʻliq namoyon etishida asosiy oʻrin tutadi. Tasviriy faoliyat esa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun atrof-muhitni anglash, oʻz fikr va kechinmalarini obrazlar orqali ifodalash, estetik didni shakllantirishda eng qulay va tabiiy vositadir. [3]. Bolalar tasviriy faoliyat orqali vizual tafakkurni rivojlantiradi, idrok, eslab qolish, muvofiqlik, tafsilotlarga eʼtibor kabi psixologik komponentlar mustahkamlanadi. Shu jihatdan olganda, rasm chizish, boʻyash, applikatsiya, loy ishi kabilar faqat faoliyat boʻlib qolmay, balki kompleks psixopedagogik rivojlanishning asosi hisoblanadi. Jumladan, A.S.Umarova tasviriy faoliyat orqali estetik didni rivojlantirish yoʻllarini asoslab bergan boʻlsa, Gʻ.Q.Toʻxtaeva ijodiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ochib bergan. S.M. Yoʻldosheva maktabgacha taʼlim metodikalarini tizimlashtirib, amaliy yondashuvlar taklif etgan. M.M.Raximov bolalarda rasm orqali obrazli fikrlashni shakllantirishni nazariy jihatdan yoritadi. N.M.Karimova innovatsion pedagogik yondashuvlarni ilgari surgan boʻlsa, Sh.Alimov maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik holatini sanʼat vositasida oʻrganishni taklif etadi[5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyat orqali atrof-muhitni idrok etishni shakllantirish uchun pedagogik-psixologik yondashuvlar doirasida rassomlik, modellash, applikatsiya kabi mashgʻulotlar qoʻllaniladi. Amaliy tavsiyalar qatoriga bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy harakatlar, uni kuzatishga undash, ijodiy jarayonni ragʻbatlantirish va tabiat bilan doimiy aloqada boʻlishini taʼminlash kiradi. [4].

Pedagogik-psixologik yondashuvlar: ijodiy salohiyatni rivojlantirish bolalarni tasviriy faoliyatga jalb qilish orqali ularning tasavvurlari, xotirasi, diqqati, ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Atrof-muhitni o'rganish: tasviriy faoliyat jarayonida bolalar tabiat manzaralarini, jonli va jonsiz tabiat buyumlarini kuzatish va aks ettirish orqali atrof-muhit haqidagi bilimlari ortadi. [5].

His-tuyg'ularni ifodalash: ranglar, shakllar va tasvirlar orqali bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadilar, bu esa ularning emotsional rivojlanishiga yordam beradi.

Ko'nikmalarni shakllantirish: bola qo'l motorikasini rivojlantiruvchi turli uslublar (bo'yoqlar bilan ishlash, qalamda chizish, plastilin bilan modellash) qo'llaniladi.

Amaliy tavsiyalar

Rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash: bolaning har qanday ijodiy harakatini rag'batlantirib, unga ishonch baxsh etish, ijodiy jarayonni qo'llab-quvvatlash zarur.

Kuzatuvchanlikni oshirish: tabiatda yoki kundalik hayotda ko'rgan narsalari, hodisalarini chizishga undash orqali bolaning kuzatuvchanligi oshiriladi.

Matn va dialogdan foydalanish: mavzuni tushuntirishda she'rlar, ertaklar, hikoyatlardan foydalanish, bolalar bilan dialog qurish orqali mavzu ustida ish olib borish mumkin.

Turli materiallardan foydalanish: qalam, bo'yoqlar, plastilin, tabiiy materiallar (barglar, urug'lar) kabi turli xil materiallardan foydalanish bolaning ijodkorligini oshiradi.

Xulosalash va muhokama qilish: bolaning ishi yakunlangandan so'ng, uni baholash, muhokama qilish, qachonki xatolikka yo'l qo'yilsa, uni to'g'rilashga yordam berish kerak.

Mavzularni hayot bilan bog'lash: chizilgan rasmlar va yaratilgan asarlarni maktabgacha ta'lim muassasasi hayoti, oilaviy ta'til, bayramlar bilan bog'lab, uni atrofdagi hayot bilan chambarchas bog'lash muhim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitni idrok etish — ongli va hissiy jihatdan tabiat, shahar, manzara, ijtimoiy muhitni tushunish, uning bilan munosabat qurish ko'nikmalarini shakllantiradi. [6]. Rasm chizish, model yasash, yoyma san'at, aplikatsiya kabi badiiy tasviriy ishlar bolalarning motorika, vizual sezgi, xotira va e'tiborini rivojlantirishga yordam beradi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning atrof muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi va idrok qilish jarayonini boyitadi. Sezgi integratsiyasi nazariyasi bolalar kontakt, ko'rish, eshitish, teginish orqali olgan ma'lumotlarini birlashtirishini ko'rsatadi. Konstruktivistik nazariyalarga ko'ra, bolalar faol tajribalar orqali o'rganadi. [7]. Estetik nazariya esa san'at asarlarining hissiy va estetik ta'siri orqali did va axloqiy qarashlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda bolalarning atrof-muhitni idrok etishining asosiy omillaridan biri — tasviriy faoliyat. Rasm, model, tabiiy materiallar bilan ishlash, atrof-muhitni asrab avaylashga doir bo'lgan san'at mashg'ulotlari bolalarda estetika, ijod, ekologik ong va axloqiy qarashlarni shakllantiradi. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, pedagogik metodlar, sezgi integratsiyasi va loyiha asosida ishlash samarali natija beradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof muhitni asrab avaylashga oid san'at mashg'ulotlarini kengaytirish, pedagoglarning metodik tayyorgarligini oshirish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PQ–4312-son qarori, 2019-yil.
2. F.U.Po‘lotov “Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirish” International scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, april 16-17, 2025
3. Ibodova M.N. Kooperativ ta’lim asosida biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning integrativ yo‘naltirilgan bilimlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari. Inter education global study, 2024, №6.
4. Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini o‘qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta’minoti. Kasb-hunar ta’limi ilmiy-uslubiy jurnal, 2024, №7.
5. Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishning didaktik modeli. O‘zMU Xabarlar, 2024, №1/8/1, B. 104–105.
6. Raximov M.M. Tasviriy faoliyat asoslari, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2020.
7. Karimova N.M. Pedagogik innovatsiyalar, Toshkent, “Fan”, 2017.

EKOLOGIK TARBIYANI TA’MINLASHNING IJTIMOIIY KELIB CHIQUISHIDA, “HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” FANI PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI TAHLILI ASOSIDA.

Akobirov Shuxrat Razitdinovich
NDU katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
Akobirova Nilufar Shuxratovna
Toshkent davlat farmatsevtika instituti
talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani dars mashg‘ulotlarida bugungi inson faoliyati xavfsizligi fan sifatida o‘qitilishi, uning vazifasi, maqsadi hamda ekologik muommolar haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что на занятиях по предмету «Безопасность жизнедеятельности» сегодня рассматривается безопасность деятельности человека как наука, её задачи и цели, а также экологические проблемы.

Annotation: This article discusses how the subject "Life Safety" is taught in classes today as a science of human activity safety, its tasks, objectives, and also environmental issues.

Kalit so‘zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, ekologik tahdid, yuqumli kasalliklar, “ekologik tarbiya”, “ekologik ta’lim”, “ekologik madaniyat”, “ekologik kompetentlik.”

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, экологическая безопасность, экологическая угроза, инфекционные заболевания, «экологическое воспитание», «экологическое образование», «экологическая культура», «экологическая компетентность».

	Dildora Yunusovna p.f.f.d (PhD) Biologiya kafdrasi katta o'qituvchisi	
144.	BARQAROR TARAQQIYOT YO'LIDA EKOLOGIK TA'LIM. Hamidova Dilbar G'iyosovna, NDU o'qituvchisi	468-472
145.	BARQAROR EKOLOGIK RIVOJLANISH YO'LIDA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI. Sharipova Dildora Rajabovna NDU universiteti o'qituvchisi	472-475
146.	BARQAROR RIVOJLANISH YOLIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH. Urunova Dilshoda Sobirovna NDU o'qituvchisi	475-480
147.	STEAM YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK MADANIYAT VA AHOLI ONGINI OSHIRISH. Ergashova Ro'zigul To'lg'in qizi, NDU doktoranti	481-484
148.	YOSHLARDA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Fayzullayev Burxon, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti Samarqand mintaqaviy filiali direktori Malikov Dilshod Boymurod o'g'li Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute Ta'lim jarayonini tashkil etish bo'lim boshlig'i	484-489
149.	ATROF - MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA YOSHLARNING. O'RNI VA MAS'ULIYATI. Fayzullayeva Dilnoza Lutfullo qizi, NDU 4-bosqich talabasi	489-492
150.	AHOLI O'RTASIDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH USULLARI. Umarov Husan Laziz o'g'li NDU 4-kurs talabasi	492-495
151.	BIOLOGIK TA'LIM VA TADQIQOTLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI. Ibodova Mahfuza Namozovna NDU dotsenti, (PhD).	495-501
152.	TALABALARNING EKOLOGIK SAVODXONLIGINI TERMINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. Jabborova Tozagul Xujamurodovna Iqtisodiyot va pedagogika universiteti b.f.f.d(PhD),v.b.dotsent	501-505
153.	EKOLOGIK TA'LIMNING AHAMIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI. Ergasheva Maftuna Shodmon qizi NDU 4-bosqich talabasi	505-508
154.	EKOLOGIK TA'LIM VA BARQAROR RIVOJLANISH. Ummatova Muxayyo Egamberdiyevna, NDU Biologiya kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.(PhD) Rustamova Barchinoy Yorg'in qizi NDU 2-bosqich talabasi	508-512
155.	ILM-FAN VA TA'LIM ORQALI EKOLOGIK MUAMMOLARGA YECHIM Teshayeva Mohinur Sayfullo qizi, NDU tayanch doktoranti	512-515
156.	NOBIOLOGIK IXTISOSLIK TALABALARIDA EKOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI. Munisa Maxammadiyeva Abdusalom qizi, Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim kafedrasida" doktoranti	515-519
157.	INTEGRATION OF DIGITAL LEARNING TECHNOLOGIES AND ECOLOGY INTO BOTANY TEACHING IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS Kayumova Mohinur Karim qizi, student, NSU Lecturer at the Department of Biology	519-522
158.	BARQAROR RIVOJLANISHDA TA'LIM VA ILM-FANNING ROLI. Ravshanov Ma'rufjon Baxtiyor og'li, NDU akademik litseyi biologiya fani bosh o'qituvchisi, NDU 1-bosqich tayanch doktoranti	522-524
159.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYAT ORQALI ATROF -MUHITNI IDROK ETISHNI SHAKLLANTIRISH: PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR, Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi, NDU Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi	524-527
160.	EKOLOGIK TARBIYANI TA'MINLASHNING IJTIMOY KELIB CHIQISHIDA,"HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" FANI PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI TAHLILI ASOSIDA. Akobirov Shuxrat Razitdinovich NDU katta o'qituvchisi,p.f.f.d (PhD), Akobirova Nilufar Shuxratovna Toshkent davlat farmatsevtika instituti talabasi.	527-531
161.	EKOLOGIK TA'LIM, EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL IQTISODIYOT. Rahmonov Ilg'or. NDU Iqtisod kafedrasida o'qituvchisi. Shermamatov Muxammad Baxodir o'g'li. NDU 4-kurs talabasi	531-536